

## XUFYONA IQTISODIYOTNING INSTITUTSIONAL NAZARIYASI

**Meylikov Fazliddin Abduhalim o'g'li**

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti*

*Shahrisabz filiali o'qituvchisi*

**Ro'ziqulova Gulsevar**

**Turopov Davlatbek**

*Toshkent Kimyo-texnologiya institute*

*Shahrisabz filiali talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xufyona iqtisodiyotning kelib chiqishi va institutSIONAL nazariyasi to'g'risida ko'p ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Eng avvalo shuni takidlash mumkinki xufyona iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy tuzilmalar, jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vogelik, balki, avvalo, jamiyat tomonidan nazorat qilib bo'lmaydigan, mamlakat aholisining bir qismini tashkil qiluvchilarning shaxsiy va guruhiy manfaatlarni qondirish, ya'ni katta miqdorda qo'shimcha daromad (foyda) olishni ko'zlab davlat organlari boshqaruvi va nazoratidan yashirgan holda, davlat va nodavlat mulkdan hamda iqtisodiy boylik, tadbirkorlik qobiliyatidan jinoiy yo'l bilan foydalanishdir.

**Kalit so'zlar:** Xufyona iqtisodiyot, yashirin iqtisodiyot, moliya, korrupsiya, institutSIONAL iqtisodiyot,

**Аннотация.** В этой статье содержится много информации о происхождении и институциональной теории теневой экономики. Прежде всего, можно отметить, что тайная экономика – это не только сложная социально-экономическая реальность, включающая в себя экономические и социальные структуры, экономические отношения в обществе, но и, прежде всего, она не может контролироваться обществом, это удовлетворение личных и групповых интересов лиц, составляющих часть населения страны, то есть с целью получения большого размера дополнительного дохода (прибыли), скрывающегося от управления и контроля государственных органов, как государственных, так и негосударственных. Государственная собственность, экономическое богатство, предпринимательские способности. является преступным использованием.

**Ключевые слова.** Тайная экономика, теневая экономика, финансы, коррупция, институциональная экономика,

**Abstract.** This article provides a lot of information about the origin and institutional theory of the underground economy. First of all, it can be noted that the secret economy is not only a complex socio-economic reality that includes economic and social structures, economic relations in society, but also, first of all, it cannot be controlled by society, it is the satisfaction of personal and group interests of those who

*make up part of the country's population. , that is, with the aim of obtaining a large amount of additional income (profit), hiding from the management and control of state bodies, from state and non-state property, economic wealth, entrepreneurial ability is criminal use.*

**Key words:** Secret economy, shadow economy, finance, corruption, institutional economy,

## KIRISH

Xufyona iqtisodiyot mavjudligiga dastlab 20-asrning 30-yillarida e'tibor bera boshladilar. XX asrning 70-yillaridan boshlab xufyona iqtisodiyotni ilmiy tadqiq qilish boshlandi. Xufyona iqtisodiyotni tahlil qilish rivojlanayotgan mamlakatlar misolida ingliz sotsiologi K.Xart tomonidan birinchilar qatorida boshlandi U "uchinchidunyo" mamlakatlarida ko'plab shaharliklarning rasmiy iqtisodiyotga aloqador emasligini aniqladi. U norasmiy iqtisodiyot atamasini ilmiy muomalaga kiritdi. Daromad olishning formal va noformal shakllari o'tasidagi farq ish haqi va o'zini o'zi ish bilan band qilish asosida topilgan daromad o'tasidagi farq sifatida izohlandi.

Xufyonalik – shaxslarning kundalik faoliyatni tashkil qilishda mavjud huquq(qonun) normalaridan foydalanishdan bo'yin tovlash va yozilmagan huquqqa, ya'ni an'analar va urf-odatlarda qayd etilgan normalarga hamda mulkchilik huquqlarini almashish va himoyalash yuzasidan kelib chiqqan nizolarni hal etishning huquq doirasidan chetga chiquvchi mexanizmlariga murojaat etishidan iborat.

Xufyona iqtisodiyot - nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy tuzilmalar, jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy voqelik, balki, avvalo, jamiyat tomonidan nazorat qilib bo'lmaydigan, mamlakat aholisining bir qismini tashkil qiluvchilarning shaxsiy va guruhiy manfaatlarni qondirish, ya'ni katta miqdorda qo'shimcha daromad (foyda) olishni ko'zlab davlat organlari boshqaruvi va nazoratidan yashirgan holda, davlat va nodavlat mulkdan hamda iqtisodiy boylik, tadbirkorlik qobiliyatidan jinoiy yo'l bilan foydalanishdir. Xufyona rejimda almashuvlarni amalga oshirish ham xarajatlar bilan bog'liq. Xarajatlarning bir turida tejalishga erishgan xufyona iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi sub'ektlar boshqa xarajatlarni ko'proq amalga oshirishadi – ular «xufyonalik bahosi»ni to'lashga majburdirlar.

Iqtisodiy adabiyotlarda xufyona iqtisodiyotga turli ta'riflar berilgan:

1. Xufyona iqtisodiyot qonun asosida man qilingan faoliyat turlari deb ta'riflanadi.
2. Xufyona iqtisodiyot iqtisodiy faoliyatning kuzatilmagan va yashirin faoliyat turi.
3. Xufyona iqtisodiyot rasmiy statistikada u yoki bu sabablarga ko'ra hisobga olinmagan har qanday iqtisodiy faoliyat bo'lib, unda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiritilmaydi hamda soliqqa tortishdan chetda qoladi.<sup>13</sup>

<sup>13</sup> <https://fayllar.org/xufyona-iqtisodiyotning-institutsional-nazariyasi.html>

Yashirin iqtisodiyot, xufiyona iqtisodiyot — ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to'lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy faoliyat turlari. Yashirin iqtisodiyot oshkora payqab bo'lmaydigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash, iste'mol jarayonlari — iqtisodiy munosabatlar bo'lib, uning negizida ayrim kishilar yoki kishilar guruhi manfaatlari yotadi. Yashirin iqtisodiyot dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida mavjud.

21-asrga kelib iqtisodiyotining globallashuvi oqibatida Yashirin iqtisodiyot milliy doiradan chiqib xalqaro darajaga ko'tarildi. Yashirin iqtisodiyot globallashuvi bu bir mamlakatdagi Yashirin iqtisodiyot boshqa mamlakatga ko'chirilishida, nojo'ya biznes ishlari bilan shug'ullanuvchi xalqaro firmalarning paydo bo'lishida ko'rindi. Bunga misol qilib xalqaro narkobiznesni, yashirin qurol savdosini, ishchi kuchining yashirin migratsiyasini uyushtirishni, offshor zonalar orqali g'ayri qonuniy yo'llar bilan topilgan pulni "halollab" olish kabilarni ko'rsatish mumkin. Bular xalqaro hamjamiyatga katta xatar turgiradi. Pulni chet mamlakatga yashirin chiqarib "halollab" olishga qarshi kurash maqsadlarida xalqaro hamjamiyat maxsus tashkilot — Xalqaro moliyaviy harakatlar guruhini tashkil etgan.

Yalpi ichki maxsulot murakkab ko'p bosqichli hodisa, uning tur va shakllari xilma xil. Yashirin iqtisodiyot maqsadi, faoliyati va iqtisodiy ijtimoiy oqibatlariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi:

1) jinoiy iqtisodiy faoliyat. Bu mutlaqo ma'n etilgan, qonun yo'li bilan ta'qib etiladigan ishlar bilan shug'ullanishmas, narkobiznes, pornobiznes, qurol biznesi va hokazo

2) g'ayriqonuniy, g'ayriiqtisodiy usullar bilan daromadlarni qayta taqsimlab o'zlashtirib olishmas, o'g'irlilik, bosqinchilik, reket, poraxo'rlik


3) ikkilamchi iqtisodiyot — kishilarga zarar keltirmaydigan, ular uchun naf beradigan, lekin rasman ruxsat etilmagan va davlat ro'yxatidan o'tmagan iqtisodiy faoliyat. Ularga yashirin tadbirdorlik, 1—2 va 5—10 kishi band bo'lgan yashirin kichik korxonalar faoliyati kiradi. Yashirin tadbirdorlik xizmati ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo, kiyimkechak ishlab chiqarishda keng tarqalgan;

Faoliyat turi	Tavsif	Ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri	Misollar
Norasmiy savdo	Ro'yxatga olinmagan yoki soliqlardan yashirilgan tovar va xizmatlar savdosi	Soliq tushumlarining kamayishi, norasmiy o'rinalining ko'payishi	Bozorlar, norasmiy xizmat ko'rsatuvchilar
Kontrabanda	Chegaralard	Mahalliy	Elektronika,


	an noqonuniy yo'l bilan tovar olib o'tish	ishlab chiqaruvchilarga zarar, noqonuniy faoliyatlarning kuchayishi	kiyim-kechak kontrabandasi
Soxta firma va korxonalar	Soliqdan qochish maqsadida faqat qog'ozda tashkil etilgan korxonalar	Davlat byudjetiga zarar, adolatsiz raqobat	"Yashirin" savdo firmalari
Naqd pul operatsiyalari	Bank tizimidan tashqarida amalga oshiriladigan to'lovlar	Soliq deklaratsiyalarida ma'lumotning noto'g'rilinga olib keladi	Qora mehnat bozoridagi ish haqilari
Noqonuniy mehnat yollash	Ishchilarni norasmiy ravishda yollash, ularga rasmiy huquqlarni bermaslik	Ishchi huquqlarining buzilishi, ijtimoiy muhofazadan mahrumlik	Uy ishchilar, qurilish sohasidagi norasmiy yollash
Noqonuniy xizmatlar ko'rsatish	Ro'yxatga olinmagan xizmat turlari	Qonunbuzarli klarni rag'batlantirish, jinoiy faoliyatning kengayishi	G'arazgo'y xizmatlar, noqonuniy tibbiy yordam
Noqonuniy moliyaviy operatsiyalar	Bank tizimidan tashqaridagi yoki yashirin moliyaviy faoliyatlar	Pul yuvish, korrupsiyaga sharoit yaratish	Foizlar ostida yashirin kredit berish

4) rasman ruxsat etilgan faoliyat bilan birga qo'shimcha ravishda yashirin ishlab chiqarishga qo'l urish, ochiq ishlaydigan korxonalarda qo'shimcha ravishda hisobga kirmagan mahsulot chiqarib, uni yashirin sotish;

5) mansabni suiiste'mol qilish va korrupsiyaga asoslangan iqtisodiy xattiharakatlar. Bular jumlasiga davlat idoralaridagi poraxo'rlik, yashirin lobbizm, mansabdan foydalaniib subsidiyalar olishni kiritish mumkin;



6) qalbakilashtirilgan iqtisodiy faoliyat, bu iqtisodiyot davlat sektoriga xos bo'lib, davlatni aldashga qaratiladi. Buning eng yaqqol namunasi davlat sektoridagi qo'shib yozishlar, qilinmagan ishlar uchun davlatdan haq olish va boshqalar Yashirin iqtisodiyotdagi ijtimoiy zararli faoliyat davlat tomonidan qat'ianan taqiqlanadi, hamma choralar bilan unga qarshi kurash olib boriladi, ijtimoiy foydali faoliyatning (norasmiy bo'lsada kishilar talab ehtiyojlarini qondiradi) oshkorlikka chiqishi iqtisodiy jihatdan rag'batlantiriladi.<sup>14</sup>



Hozirgi vaqtida iqtisodiyot va jamiyatning globallashuvi, integratsiya jarayonlarining chuqurlashib borishi mamlakatlar o'tasidagi rasmiy chegaralarning yemirilib borishiga olib kelmoqda. Rivojlangan dunyo birlashib chegaralarni yo'q qilib ittifoqlar tashkiletmoqda. Bunday sharoitda dunyoning har qanday burchagida

<sup>14</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashirin\\_iqtisodiyot](https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashirin_iqtisodiyot)

yuzagakelgan ilg'or (ham yaxshi, ham yomon ma'noda) usullar jadalravishda butun dunyoga tarqab ketmoqda. Shu sababdaniqtisodiyotning norasmiy iqtisodiyotni namoyon bo'lism shakllarini, ularni aniqlash va baholash usullarini, shu bilan birga unga qarshikurashi (zarur bo'lgan hollarda) yoki legallashtirish yo'nalishlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu uch yo'nalish ko'pchilik hollarda ustma-ust tushadi, lekin predmet va metodlardagi farq sezilib turadi. Huquqning iqtisodiyazariyasi rasmiy ("oq") iqtisodiyotni o'rganishadi; xufyonaiqtisodiyot bo'yicha mutaxassislar asosan norasmiy ("kul rang") sektorga e'tibor qaratishadi; jinoyatchilikning iqtisodiy nazariyasikriminal ("qora") biznesni o'rganishadi

.Huquqning iqtisodiy nazariyasi va jinoyatchilikning iqtisodiyazariyasi neoinstitutsionalizmning oqimlari hisoblanadi. Xufyonaiqtisodiyotni tadqiq etish bilan ko'pincha an'anaviy institutsionalizmnamoyandalari bo'lgan iqtisodchi va sotsiologlar shug'ullanishadi

.Hozirgi vaqtida iqtisodiyot va jamiyatning globallashuvi, integratsiya jarayonlarining chuqurlashib borishi mamlakatlar o'rtaisdagi rasmiy chegaralarning yemirilib borishiga olib kelmoqda. Rivojlangan dunyo birlashib chegaralarni yo'q

qilib ittifoqlar tashkiletmoqda. Bunday sharoitda dunyoning har qanday burchagida yuzagakelgan ilg'or (ham yaxshi, ham yomon ma'noda) usullar jadalravishda butun dunyoga tarqab ketmoqda. Shu sababdaniqtisodiyotning norasmiy iqtisodiyotni namoyon bo'lism shakllarini, ularni aniqlash va baholash usullarini, shu bilan birga unga qarshikurashi (zarur bo'lgan hollarda) yoki legallashtirish

yo'nalishlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xufyona iqtisodiyotning namoyon bo'lism shakllaridan biri bo'lgan korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga nihoyatda salbiy ta'sir etadi. Shu boisdan korrupsiyaga qarshikurash va uning oldini olishmasalalari barcha mamlakatlar uchun dolzab hisoblanadi.<sup>15</sup>

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://fayllar.org/xufyona-iqtisodiyotning-institutsional-nazariyasi.html>
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashirin\\_iqtisodiyot](https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashirin_iqtisodiyot)
3. <https://ru.scribd.com/document/680030888/Xufyona-iqtisodiyot-kitoblar-pdf>
4. [https://ilmiy.bmti.uz/blib/files/81/Institutsional%20iqtisodiyot.pdf?utm\\_source](https://ilmiy.bmti.uz/blib/files/81/Institutsional%20iqtisodiyot.pdf?utm_source)
5. [https://cyberleninka.ru/article/n/hufiyona-iqtisodiyotni-cheklashda-raqamli-iqtisodiyotning-o-ziga-xos-mexanizmlari?utm\\_source](https://cyberleninka.ru/article/n/hufiyona-iqtisodiyotni-cheklashda-raqamli-iqtisodiyotning-o-ziga-xos-mexanizmlari?utm_source)

<sup>15</sup> <https://ru.scribd.com/document/680030888/Xufyona-iqtisodiyot-kitoblar-pdf>